

## AHMAD YUGNAKIY VA UNING “HIBAT UL-HAQOYIQ” ASARI

*G'ulomova Gulzoda Ikromjonovna*

*Qo'qon Universiteti Andijon filali*

*ijtimoiy gumanitar va pedagogika fakulteti*

*Filologiya tillarni o'qitish o'zbek tili talabasi.*

**Annotatsiya.** Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfası”) asari XI–XII asrlarda yozilgan, axloqiy-didaktik mazmundagi pand-nasihatlar to‘plamidir. Asar aruz vaznida yozilgan bo‘lib, unda insoniy fazilatlar, ilm-fan, halollik, sabr-toqat, adolat, tavoze kabi yuksak axloqiy g‘oyalar targ‘ib etiladi. Muallif o‘z davrining ijtimoiy-ma’naviy muhitini inobatga olgan holda, yosh avlodni tarbiyalash, to‘g‘ri yo‘lga boshlashni maqsad qilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ahmad Yugnakiy, Hibat ul-haqoyiq, axloqiy pand-nasihat, didaktik doston, o‘zbek adabiyoti, aruz, ma’naviyat, sabr, halollik, hikmat, XII asr adabiyoti.

**Аннотация.** Произведение Ахмада Югнакия «Хибат ул-хакойик» («Дар истин») представляет собой сборник морально-дидактических наставлений, написанных в XI–XII веках. Произведение написано стихом аруз, и в нем пропагандируются высокие моральные идеи, такие как человеческие качества, наука, честность, терпение, справедливость и смирение. Автор, учитывая социально-духовную обстановку своего времени, ставил своей целью воспитать молодое поколение и направить его на истинный путь.

**Ключевые слова:** Ахмад Югнакия, «Хибат ул-хакойик», морально-дидактические наставления, дидактический эпос, узбекская литература, аруз, духовность, терпение, честность, мудрость, литература XII века.

**Abstract.** Ahmad Yugnakiy's work “Hibat ul-haqoyiq” (“The Gift of Truths”) is a collection of moral and didactic admonitions written in the 11th-12th centuries. The work is written in the aruz verse, and it promotes high moral ideas such as human qualities, science, honesty, patience, justice, and humility. The author, taking into account the socio-spiritual environment of his time, aimed to educate the younger generation and guide them on the right path.

**Keywords:** Ahmad Yugnakiy, Hibat ul-haqoyiq, moral admonitions, didactic epic, Uzbek literature, aruz, spirituality, patience, honesty, wisdom, 12th century literature.

Badiiy adabiyot faqatgina kitobxonni estetik zavq bilan ta'minlash uchun emas, balki unda chuqur mazmun-mohiyat, ayniqsa, tarbiyaviy va axloqiy g‘oyalar mujassam bo‘lishi ham muhim hisoblanadi. Asarning aynan ana shunday ichki mazmuni uni

to'laqonli badiiy asar sifatida shakllantiradi. Agar Sharq adabiyotining taraqqiyot tarixiga nazar solsak, unda didaktik, ya'ni o'rgatuvchi mavzularning yetakchi o'rin egallaganini ko'ramiz. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino bu borada Sharq adabiyoti nasihat orqali, G'arb esa hayotni boricha tasvirlash orqali kishini tarbiyalashga intilishini ta'kidlagan. Turkiy adabiyotda didaktik yo'nalishdagi ilk misollar Mahmud Koshg'ariy tomonidan yozilgan "Devoni lug'otit turk" asarida uchrasa, o'zbek mumtoz adabiyotida bu boradagi eng yirik namunalar qatoriga Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" hamda Ahmad Yugnakiy qalamiga mansub "Hibat ul-haqoyiq" asarlarini kiritish mumkin. Ushbu asarlarda axloq, odob, bilim va adolat kabi muhim g'oyalar she'riy shaklda, pand-nasihat tarzida bayon etilgan.

Turkiy adabiyot tarixida o'ziga xos o'rin tutgan ijodkorlardan biri bu – Ahmad Yugnakiydir. U XII asrda yashagan, diniy-falsafiy va axloqiy g'oyalarga boy asarlar yaratgan mutafakkirdir. Uning eng mashhur asari – "Hibat ul-haqoyiq" bo'lib, bu asar o'zbek adabiyotining ilk didaktik yodgorliklaridan biridir.

"Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar tuhfası") asari o'zbek mumtoz adabiyotining ilk namunalaridan biri bo'lib, forsiy va arabiy ilohiyotiy ta'sirlar bilan sug'orilgan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodi unsurlarini ham o'zida mujassam etgan. Asar masnaviy tarzida yozilgan bo'lib, unda axloqiy, diniy, hayotiy nasihatlar bayon etilgan.

Asar an'anaviy tarzda boshlanadi, ya'ni birinchi bo'lib Allohga hamd va Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga madx aytiladi. Shundan so'ng, "Choriyorlarga salom yo'llayman, tirikman, ularning yo'lini qo'llayman" degan so'zlar bilan xalifalarga ham e'tibor qaratiladi. An'anaviy boshlanishdan keyin asar davomida Amir Dod Sipohsolarbekning fazilatlarini tasvirlanadi. U hukmdor sifatida sahovatpeshalik, adolatparvarlik kabi o'zgacha sifatlar bilan ulug'lanadi. Asarda Dod Sipohsolarbek faqat adolatli podshoh sifatida emas, balki komil inson sifatida ham tasvirlanadi. Ilm va ma'rifatga chorlash, barcha davrlarning adabiyotida eng muhim mavzu bo'lib, Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning "Ilm talab qilish har bir musulmon uchun farzdir" degan hadisi asosida ilmning ahamiyati ta'kidlanadi. Ilm inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, u kishini ma'naviy va aqliy jihatdan yuksaltiradi, shuningdek, insonni kamolot sari yetaklaydi. Ilm jaholatni yengib, insonni ko'ngli ravshan bo'lishiga yordam beradi. Ahmad Yugnakiy asarida ilmni baxt va saodatga olib boruvchi kalit sifatida tasvirlaydi. Ilm sohiblari va johillar har doim bir-biriga qarama-qarshi turishgan. Muallif, bilimli va bilimsiz odamlarni taqqoslayotganda, bilimli odamni tillo yoki pulga, bilimsizni esa doimo xor bo'lib yashovchi, hurmati yo'q kishiga qiyoslaydi. Insonning go'zalligi uning ilm va aqli bilan o'lchanadi. Ilmli odamlar dunyodan o'tsalar ham ularning nomi abadiy yashaydi, johillar esa yashasa ham ular xalq orasida hurmat va o'ringa ega bo'lmaydi.

Asarning ikkinchi bo'limida tilni tiyish va kishi axloq-odobi haqida so'z boradi. Adab muallimi bo'lmish Yugnakiy insonlarni rostgo'ylik, til bilan insonlar dilini jarohatlamaslikka, dilozor bo'lmislikka chaqiradi. Shu o'rinda xalqimizda mashhur bo'lgan "Tig' yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi" maqolini keltiradi. Darhaqiqat, odobaxloqning boshi til. Shu bilan birga adib insonlarni oz va soz so'zlashga chaqiradi. Quyidagi bayt fikrmizning yorqin namunasi:

Barchaga teng aytdik, nasihat budir,  
Tilini tiygan kishi, oqil ham shudir.  
Tilini tiyib, so'zni oz qilgan kishi,  
O'zi ham saqlanur, avj olur ishi.

Asarda nafaqat ma'no-mohiyat kuchli, balki unda badiiy san'atlardan ham unumli foydalanilgan. To'g'ri so'zni asalga, yolg'on so'zni sarimsoqqa o'xshatish yordamida tashbeh san'atining go'zal namunasi yaratilgan. Yolg'on so'z kasallik, tashvish bo'lsa, to'g'ri so'z shifo bo'lib dardlardan forig' etishi bayon qilinadi. Bu xususida so'z mulking sultoni Mir Alisher Navoiyning ham qarashlari asar bilan hamohang.

Haqiqatan ham saxiy inson nafaqat hayotida, balki o'limidan keyin ham yuksak hurmatga sazovor bo'ladi. Uning nomi doimo ulug'lanadi, chunki u o'zining saxiyligi va insofli fe'li bilan odamlar qalbida chuqur iz qoldiradi. Biroq, baxil inson o'zining yomon fe'li va nafs tufayli pand yeydi. U boylik to'plasa ham, obro'ga erisha olmaydi, chunki u faqat o'zining shaxsiy manfaatlarini o'ylab, boshqalarga yordam bermaydi. Boylik va moddiy narsalar uning uchun muhim bo'lsa-da, obro' va e'tibor uni tark etadi.

Shuningdek, "Qorning to'q, usting but, bo'lsa yetadi, Ortiqcha tashvishing zoye ketadi" kabi she'r misralari yuqoridagi hikoyaning ma'nosini yanada ochib beradi. Bu misralar odamga nafs va ortiqcha narsalarga bo'lgan suqligini ko'nglidan chiqarishni, ibodat va sodda hayotga e'tibor qaratishni maslahat beradi. Nafsing suqligini kamsitishga, uning orqasidan qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki har bir narsa o'z vaqtida bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, "Hibat-ul haqoyiq" asarida dunyoning o'tkinchiligiga, nafsga berilmaslikka, tavezilikka, kibrlilik va xarislikning zarariga oid chuqur va ibratli fikrlar bildirilgan. Asarda aytilishicha, dunyo fani va uning barcha go'zalliklari vaqtincha, shuning uchun ularga chigal bo'lish va nafs to'ldirish o'rniga, inson o'zini yaxshilash va boshqalar bilan o'zaro yordam ko'rsatishga e'tibor qaratishi kerak. Kibrlilik va xarislik insonni yomon yo'lga boshlaydi, ularni o'zgarishi, o'zining ichki tuyg'ularini boshqarishi, boshqalarga mehr va yordam ko'rsatishi lozim.

Asar eski o'g'uz-qipchoq shevasida, ya'ni qadimgi turkiy tilda yozilgan. Shunga qaramay, zamonaviy o'quvchi uchun ham tushunarli bo'lgan ko'plab so'zlar uchraydi. Ahmad Yugnakiy asarda sodda, xalqchil tilni tanlagan, bu esa uni keng ommaga

tushunarli bo'lishiga xizmat qilgan. Uning ijod uslubi hikmatli so'zlarga boy, sermazmun va badiiy tasvir vositalariga boy bo'lib, o'quvchini chuqur fikrlashga chorlaydi.<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Yugnakiy va uning "Hibat ul-haqoyiq" asari o'zbek adabiy merosining durdonalaridan biridir. "Hibat ul-haqoyiq" asarining eng katta qiymati – bu tarbiyaviy yukidir. Asar bugungi kunda ham yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishda, axloqiy tarbiyada, hayot saboqlarini o'rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. Yugnakiy har bir insonga bu dunyoda qanday yashash, qanday fazilatlarga ega bo'lish, qanday illatlardan yiroq turish kerakligini bayon qiladi. Bu asarda muallif insonni kamolotga yetaklovchi fazilatlar – halollik, sabr, rostgo'ylik, ilmga chanqoqlik, adolatparvarlik kabi g'oyalarni ilgari suradi. Har bir bob yoki bo'limda muayyan hayotiy haqiqat yoritiladi, shuningdek, Qur'on oyatlari va hadislar orqali fikrlar mustahkamlanadi. Ushbu asar nafaqat adabiy, balki ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan ham beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham ushbu asarning o'rganilishi, o'quv dasturlariga kiritilishi yoshlarimizni ma'naviy yetuk, axloqli, ilmga chanqoq insonlar etib tarbiyalashda muhim vosita bo'la oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, 4(5), 36-38.
5. O'G'Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). *World of Philology*, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 173-176.

<sup>1</sup> Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, x. (2025). Adabiyotshunoslikda badiiy asar tili va badiiy nutq uslubi. *Наука и технология в современном мире*, 4(5), 36-38.

8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 438-442.
10. Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 11, 2, 18-20, 2024,
11. Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION, Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 28, 1, 230-233, 2024,
12. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.
13. Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. *Science and innovation*, 3(Special Issue 34), 178-181.
14. Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. *University Research Base*, 992-995.